



KKI XALQ DILBANDI -MAQSUD SHAYXZODA

**Mamurova Feruza Islomovna
Obutjonova Durdona Omonjon qizi**
Toshkent davlat transport universiteti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- November 2023 yil
Ma'qullandi: 05- November 2023 yil
Nashr qilindi: 10-November 2023 yil

KEY WORDS

*Maqsud Shayxzoda, Toshkentnoma,
asarlar,, she'rlar, adib, Toshkent,
gazeta jurnal, ijodi.*

ABSTRACT

*"Ikki xalq farzandi" bo'lmish Maqsud Shayxzoda o'zi
tug'ilmagan bo'lsada Toshkent shahrini juda sevganligini
uchun "Toshkentnoma" asarini yozgan.*

Maqsud Shayxzoda nomi nafaqat o'zbek kitobxonlari balki, qardosh Ozarbayjon o'quvchilari uchun ham ardoqlidir, chunki iste'dodli shoir Ozarbayjon diyorida tug'ilib, ijodkor sifatida O'zbekistonda o'zbeklar bag'rida ulg'aydi, atoqli qalam soxibi sifatida kamol topdi.

O'zbek adabiyotining 20-asrdagi ulkan namoyondasiga aylandi. Ikki xalq dilbandi bo'ldi. Ikki xalq farzandi bo'lmish Maqsud Masum o'g'li Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Agdash ya'ni Oqtosh shahrida shifokor oilasida tug'ildi. Boshlang'ich va o'rta ma'lumotni o'zi tug'ilgan shahrida olgach, Baku Oliy Pedagogika institutiga o'qishga kiradi. 1925-yildan boshlab Darbanddagi 1-bosqich Ozarbayjon maktabida, O'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib faoliyat olib boradi.

1927-yilda "Aksilinqilobiy" tashkilot a'zosi sifatida qamoqqa olinadi. 1928-yilning fevralida Toshkentga surgun qilinadi. Maqsud Shayxzoda Toshkentga kelgach turli gazeta-jurnallarda adabiy xodim, 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar kommuteti qoshidagi "Til va Adabiyot" institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to vafot etgunga qadar "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti" hozirgi "Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti" ning O'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qiladi.

Maqsud Shayxzoda o'zi e'tirof qilganidek hali savodi chiqmasidan she'r mashq qila boshlagan shoir. Biroq u o'zining dastlabki ijod namunasini 1929-yildan boshlab e'lon qila boshladi.

1930-yilda shoirning "Loyiq soqchi", "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat", "O'n ikki", "Yangi devon", "Saylov qo'shiqlari" nomli she'riy to'plamlari nashr etildi. Ushbu she'riy majmualar Maqsud Shayxzodani o'zbek adabiyotida o'z ovozigacha ega bo'lgan katta iste'dod sifatida elga tanitadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Shayxzoda barcha o'zbek shoiri va yozuvchilari qatori bor ijobiy salohiyatini fashizm ustidan g'alaba qozonishga qaratadi. Bu davr shoir ijodining yuqori darajasiga ko'tarilgan chinakam vatanparvar ijodkor ekanini namoyon qilgan davr bo'ldi.

Insoniyatga tadqit solayotgan 20-asr balosi bo'lmush Fashizmni yo'q qilish ,hayotni, tiriklikni, or-nomusni saqlash xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga undash shoirning usha yillarda chop etilgan "Kurash nechun", "Kapitan Gostello", "Ko'ngil deydiki" kabi to'plamlarining bosh mavzusi bo'ldi. Shu yillarda Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yozdi. Mazkur drama yurtning ozodligi, Mustaqillik uchun mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazmshoxning jangovor jasorati tarixan anniq va xaqqoniy tasdiqlaydi. Maqsud Shayxzoda urushdan so'ng tinch, qurulish yillari yana qaytadan noxaq qatag'on qilinishiga qaramay farovon hayot va bunyodkorlik zavqini tarannum etuvchi she'rlardan iborat "O'n besh yilning daftari", "Shu'la", "Chorak asr devoni" kabi to'plamlarini nashr ettiradi.

1958-yilda shoir qadimiy va navqiron azim poytaxtimiz Toshkent haqida te'ran-falsafiy va ushbu shaxarga nisbatan nihoyatda ixtirosli tuyg'ularga boy bo'lgan "Toshkentnoma" dostonini yozadi. Maqsud Shayxzoda adabiyotning liro-epik janrida ham muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor. U "O'rtoq mulk", "tuproq va xaq", "Chirog'", "O'rtoq", "Me'ros", "Ovchi qissasi", "Iskandar Zulqarnayn", "O'n birlar", "Jenya", "Oqsaqol", "Ahmadjonning hikmatlari", "Uchinchi o'g'il", "Nurmat otaning tushi" kabi dostonlarnin muallifidur.

Maqsud Shayxzoda badiiy asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunoslik va adabiy tanqid soxasida samarali ijod qilgan. Ayniqsa uning buyuk mutaffakkir Alisher Navoiy ijodi va faoliyatini o'rganishga bag'ishlagan jiddiy tadqiqotlarini Navoiyshunoslik fanini o'rganishdagi yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi desak yanglishmagan bo'lamiz. Shuningdek zabardas olimimiz o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqumiy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va xalq og'izaki ijodining ajoyib vakili bo'lgan Fozil shoir Jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, Pushkin, Nekrasov, Astrovuskiy, Taros Shevchenko, Chehov kabi namoyondalariga bag'ishlangan asarlar ham yaratgan.

Ikki xalq dilbandi bo'lmish Maqsud Shayxzoda 1967-yilda vafot etgan. 2001-yil o'zbek adabiyoti va ma'naviyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Shayxzoda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlanadi.

Adabiyotlar:

- 1.Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
- 2.Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.
- 3.Islomovna, M. F., & Abduvoxob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).